



Tashkent Modernism. Index

TASHKENT
MODERNISM



Muqova:

Armin Linke
“Quyosh” geliomajmuasi, konsentrator, Parkent O‘zbekiston 2021

Tashkent Modernism. Index



Tashkent Modernism. Index

Kirish so'zi

2023-yil aprel oyida Milan dizayn haftaligi dasturida xalqaro jamoatchilikka *“Tashkent Modernism XX/XXI”* tadqiqot loyihasi sarhisobi taqdim etilgan edi. Milan triennalesi zallarida *“Tashkent Modernism.Index”* ko'rgazmasidagi katta hajmli planshetlarda Armin Linkening tadqiqot va foto bayonlarini o'zida mujassam etgan mufassal hikoyasi namoyon bo'ldi. Loyihada Jan-Lui Koen va Rem Kolhas kabi xalqaro yetakchi mutaxassislarning ishtiroki loyihaning asosiy tadqiqot mavzulari va uzoq istiqbolli rejalarini ta'kidlab, butun dunyo kasbdoshlar jamoasiga ushbu sa'y-harakatlarning dolzarb ekanligini ko'rsatdi.

Uzoq va sinchkov tayyorgarlikdan keyin biz izlanishlar natijalarini so'nggi qabul qiluvchi manzil – Toshkent aholisi bilan baham ko'rishmoqchimiz. Tashrif buyuruvchilar ko'z o'ngida Milan ko'rgazmasi materiallari binosining o'zi Toshkent modernizmining durdonasi bo'lgan O'zbekiston Davlat san'at muzeyi sara to'plamlariga mansub 1960–1980-yillardagi arxiv ashyolari va san'at asarlari bilan to'ldirilgan holda taqdim etiladi. Ko'rgazma o'zbekistonlik va xalqaro mutaxassislar poytaxtimizning modernism merosining hozirgi zamondagi holati va kelajagini muhokama qilish uchun taklif etilgan *“Toshkent dunyoning qayerida joylashgan?”* xalqaro konferensiyasi bilan ochiladi.

Ushbu bukletda *“Tashkent Modernism.Index”* loyihasining materiallari uch tilda taqdim etilgan. U Milan ko'rgazmasiga asoslanib, ayni paytda mazkur namoyish taqdimotlari uchun tashrif buruvchilarga yo'llanma sifatida xizmat qiladi.

“Tashkent Modernism XX/XXI” jamoasi

O'zining jo'g'rofiy joylashuvi, rivojlangan zaxiralari va turfa madaniyatligi sharofati bilan Toshkent Markaziy Osiyodagi eng muhim shaharlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Urush yillaridan keyin bu yerda mintaqaning qadimiy va o'rta asrlarga oid boy tarixi bilan bog'liq me'moriy yodgorliklarni saqlash va tiklash bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Biroq 1960–1980-yillardagi zamonaviylik g'oyalari urg'u berilgan modernizm me'morchiligi hech qachon meros sifatida qabul qilinmadi. Bozor iqtisodiyotining kelishi bilan va O'zbekiston 1991-yilda erishgan mustaqilligidan so'ng ijtimoiy masalalar va sarf-xarajatlarni tejashga qaratilgan undan avvalgi uch o'n yillikning me'morchiligi o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Bugungikunda Toshkentning modernizm qismi Markaziy Osiyoning zamonaviylashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qodir betakror badiiy, madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur me'morchilik ko'plab zamonaviyliklar orasidagi navbatdagi "chekka hududdagi holat" yoki XX asr me'moriy modernizmining jahon xaritasidagi nuqtasi emas, balki sovet ijtimoiy va madaniy eksperimentining mustamlaka, post-mustamlaka va dekolonial jihatlarini aks ettiradigan global madaniy sahna uchun dolzarb va daxldor hodisadir.

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va Yekaterina Golovatyuk va Jakomo Kantoni boshchiligidagi "Grace" me'morchilik studiyasi, Andrea Gritti va Davide Del Kurto timsollaridagi Milan politexnika universiteti Arxitektura va urbanizm kafedrası, Nikola Russi va Anjelika Silos Labini rahbarligidagi "Laboratorio Permanente" studiyasi hamda me'morchilik bo'yicha tarixshunos olim Boris Chuxovich bilan hamkorlikda Toshkent modernizm me'morchiligini saqlash va moslashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, shaharning 1960–1980-yillarda shakllangan muhim me'moriy qatlamini qayta ko'rib chiqish, asrab-avaylash, shahar va sayyohlik dasturiga kiritish metodologiyasini belgiladilar.

Ko'rgazma "Tashkent Modernism XX/XXI" loyihasining bir qismi sifatidagi ikki yillik tadqiqotlar sarhisobi bo'lib, bir-biriga uzviy bog'langan ikki bo'lim: Armin Linkening fotosuratlari hamda planshetlarga ko'chirilgan tadqiqot mavzulari va muhofaza strategiyasi unsurlarini namoyish etuvchi arxiv hujjatlaridan tashkil topgan.

Armin Linke o'z ijodida sovet va Sharqiy Yevropa modernizmiga oid risolalarda so'nggi 15 yil mobaynida shakllangan, modernizm binolari ekzotik, olis va nuri so'lgan madaniyat qoldiqlari sifatida taqdim etilgan qolipli yorliqlardan qochadi. Toshkent me'morchiligining burungi go'zalligini abadiylashtirish o'rniga aksincha Armin fotosuratlarida binolarning ham ichki, ham orttirilgan zamonaviy qadr-qiymatiga urg'u berishga intilingan. Armin gavdalanirgan tasvirlarda, shuningdek, uning ijodi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik yana bir muhim xislat kashf etiladi: bu o'zining haykaltaroshlik hajmlari va murakkab sathlarga ega arxitektura ancha salmoqliroq ijtimoiy ssenariylarni sahnalashtirish uchun ssenografik makonni yaratadi.

Planshetlarda taqdim etilgan ma'lumotlar tadqiqot, tahliliy va strategik materiallardan iqtibos parchalarini o'z ichiga oladi. Ular muayyan binolarga emas, balki sovet modernizmini tushunish uchun birlamchi mavzular: "markaz" va "chekka hududlar" o'rtasidagi munosabatlar, muassasalarning roli, tipologik, texnologik va qurilish tajriba-sinovi, respublikalar o'rtasidagi raqobat, mafkura, sharqshunoslik, mustaqillikka erishilgandan keyingi o'zgarishlar hamda hozirgi holatga bag'ishlangan. Planshetlar, shuningdek, Toshkent uchun maxsus ishlab chiqilgan muhofaza qilish strategiyalari repertuarini taqdim etadi.

Toshkent nashriga poytaxtning ko'plab davlat va xususiy arxivlaridan olingan hujjatlarning asl nusxalari kiritilgan. Loyihalar va qurilish jarayonlar mujassam bo'lgan ushbu xomaki chizma va fotosuratlar mazkur me'morchilikning qad rostlanishiga qancha sa'y-harakat va g'oyalar safarbar etilgani haqida tasavvur uyg'otadi. Shu bilan birga, arxiv materiallarining estetik didi va sifati toshkentlik shaharsozlarning aksariyat binolarning manfaat olishga yo'naltirilgan vazifalari ortiga yashiringan badiiy mubohasalarning betakrorligini ochib beradi.

Ko'rgazmada loyiha ashyolari O'zbekiston Davlat san'at muzeyi sara to'plamlaridagi rangtasvir va grafik asarlar bilan yonma-yon joylashtirilgan. Nikolay Karaxan, Medat Kagarov, Alisher Mirzayev, Saydulla Abdullayev va boshqa mualliflarning tanlangan asarlarida 1960, 1970 va 1980-yillardagi madaniy va shahar manzarasidagi modernizm me'morchiligining namoyandaviy va tajriba-sinov tusi aks ettirilgan. Rasmlarning oldingi va orqa fonida, qurilayotgan obyekt va aniq voqealar ssenografiyasi o'rtasida joylashgan modernizm me'morchiligi o'z davrining madaniy hikoyalari talqinlarining jismoniy tashuvchisi sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Armin Linke (Milan, 1966-yilda tug'ilgan) – keng makonli muhit, uning texnologiyalari, hikoya qilish tarkibi va kengroq ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini savol ostiga qo'yadigan foto va videotasvirlar bilan ishlaydigan rassomdir. Uning ijodi dizaynning turli strategiyalari va tillariga doir afsonalarni chilparchin qilishga bag'ishlangan. Linkening asarlari xalqaro badiiy sahnalarda keng namoyish etilgan. Uning "Alpi" badiiy qurilmasi 2004-yilgi Venetsiya arxitektura biennalesida maxsus mukofotga sazovor bo'lgan, "Image Capital" esa 2019-yilda "Kubus.Sparda Art" mukofoti bilan taqdirlangan. U "KHI Florenz"da faoliyat ko'rsatib, Jenevadagi CERNda taklif etilgan rassom bo'lgan, hozirda esa u Urbino Oliy Badiiy sanoat institute (ISIA Urbino)da tashrif buyuruvchi professordir.

Ijodkorning oxirgi shaxsiy ko'rgazmalari sirasiga quyidagilar kiradi:

"Image Capital" (Estelle Blaschke bilan), MAST, Bolonya, Folkvang va Essen muzeyi, 2022;

"Yer indekslari" (Earth Indices);

Antropotsenni qayta ishlash (Juliya Bruno bilan), Jahon madaniyatlari uyi (HKW), Berlin, 2022;

"Blind Sensorium", Matadero, Madrid 2021, Domeniko Ridola milliy arxeologiya muzeyi, Matera, 2019;


"A Card or Maybe Two", Marubi milliy fotografiyalar muzeyi, Skutari, 2020;

Okean tadqiqotlari, CNR-ISMAR, Venetsiya, 2018.

Armin Linke

"Panorama" kinoteatri, old tomoni

Toshkent O'zbekiston 2021





Teknikat Modernisasi Industri

Comisioned by



Project Team

GRACE



POLITECNICO
MILANO 1863

DIPARTIMENTO DI ARCHITETTURA
E STUDI URBANI
DEPARTMENT OF ARCHITECTURE
AND URBAN STUDIES

LP
LABORATORIO
PERMANENTE

Mualliflar jamoasi

Tashabbuskor

Gayane Umerova, O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi raisi

Muhofiz

Yekaterina Golovatyuk

Foto bayon

Armin Linke

Ko'rgazma dizayni

Grace (Yekaterina Golovatyuk va Jakomo Kantoni, Kseniya Bisti, Sichao Li)

Tadqiqotchilar

"Grace" (Yekaterina Golovatyuk va Jakomo Kantoni, Kseniya Bisti, Natalya Saltan, Rikardo Salomoni, Zhongjian Ki),

Milan politexnika universiteti (Davide Del Kurto, Andrea Gritti, Sofiya Zelli, Federika Deo), Boris Chuxovich, "Laboratorio Permanente" (Nikola Russi, Anjelika Silos Labini, Layne Lazda, Pietro Nobili Vitelleschi, Amedeo Noris)

O'zbekiston Davlat san'at muzeyi to'plamlariga mansub ashyolar saralamasi

Mixail Ovchinnikov

PR va aloqa

Anna Dyulgerova


Grafik dizayner

Linda van Dersen

Ko'rgazma matni

Yekaterina Golovatyuk va Boris Chuxovich

Loyihani amalga oshirishdagi ko'magi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Saida Mirziyoyevaga alohida minnatdorlik izhor etamiz.



Armin Linke
O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, shift, Toshkent O'zbekiston 2022

1-sho'ba O'zgarishlar mexanizmlari

1990-yillar boshidagi modernizm me'morchiligiga nisbatan o'tmish sho'rolar davrini yodga soluvchi mog'or bosgan eslatma tariqasidagi munosabatdan farqli o'laroq, bugungi kunda toshkentliklar uni shaharning ajralmas va ardoqli qismi, uning tarkibi hamda timsoli sifatida qabul qiladilar. Gohida yangi mulkdorlar tomonidan dabdurdustdan qurilgan imoratlar natijasida shakli o'zgartilib, modernizm mohiyatidan mahrum qilingan mazkur binolar keyingi davr uslubi va uning iqtisodiy imkoniyatlarini o'ziga singdirib, uni o'zida namoyon etiradi.

Undan tashqari, me'morchilikka bosim o'tkazayotgan yana bir mexanizm mavjud. 2016-yildan buyon O'zbekistonda shaharlar, xususan poytaxtning jadal o'sishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. Mamlakatning xalqaro sarmoyalar uchun ochilishi shaharning katta qismining o'zgarishiga imkoniyat yaratdi. Va, nihoyat, dunyoning istagan chekkasida bo'lgani kabi, iqtisodiy alohida imtiyozlar ko'p hollarda shaharning tarixiy qatamlari, shu jumladan, son-sanoqsiz murakkab masalalarni hal qilish bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'tmish merosi, muhofazasi va boshqaruvidan yuqori qo'yiladi.


2-sho'ba Xatlov

Toshkent sobiq ittifoqining aholisi soni bo'yicha Moskva, Leningrad va Kiyevdan keyingi to'rtinchi shahri hisoblangan. 1930-yillardan boshlab u Markaziy Osiyoda texnik, ijtimoiy, madaniy va shaharga xos tajriba-sinovlar uchun poligon vazifasini bajarib kelgan. Toshkentni namunali poytaxt va Sharqdagi sotsializmning peshlavhasi qilish istagiga 1960-yillarning boshlarida yangi turki beriladi. Bu yerda hokimiyat yirik ilmiy markazlarni ochib, yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantiradi, san'at va madaniyatning yangi shakllarini rag'batlantiradi.

Yer silkinishi episentri bevosita shahar markazi ostida sodir bo'lgan 1966-yilgi zilzila qayta qurish jarayonlarini jadallashtirib, Toshkentni bu haqda matbuotda keng yoritilgan o'sha davr zamonaviy me'morchiligining ijod ustaxonasiga aylantiradi.

Biroq, o'zining favqulodda nodir salohiyati va ilg'or tusiga qaramay, shahar muhiti O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng sezilarli darajadagi o'zgarishlar, ba'zan esa vayronagarchiliklarga ham duchor bo'ladi.


Kelgusi talafotlarni bartaraf etish maqsadida Toshkent modernizm merosi bo'yicha xatlov o'tkazilib, har bir binoning o'ziga xos tafsilotlari va qiymatini aniqlash, uning haqiqiyliigi va yaxlitligi hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan xatarlar tavsiflandi. Xatlov Toshkentdagi modernizm inshootlarni muhofaza qilish bo'yicha alohida chora-tadbirlarni taqozo etuvchi madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatiga kiritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Unlike in the early 1990s, when all architectural modernity was perceived as an explicit reminder of the problematic Soviet past, today Tashkent's inhabitants consider it an inherent and valuable part of the city's texture and its icon. At times disfigured and deprived of the modernist essence by the spontaneous appropriations of the owners, these buildings absorb and reflect the new taste and economic possibilities.

Besides specific interventions, another mechanism is producing pressure on architecture. Since 2016, Uzbekistan, and Tashkent in particular, is undergoing rapid urban growth and development. The opening of the country to international investments has created the possibility to transform large portions of the city. And, as elsewhere in the world, economic prerogatives often put at risk the historic layers of the city, especially the legacy of the recent past, the management of which implies dealing with multiple and complex issues.

Tashkent Modernism. Index



Tashkent Modernism. Index



3-sho'ba Dasturiy orttirmalar



Asl dizaynidan tashqari ushbu binolar bugungi kunda shahardagi me'morchikning amaldagi vazifasidan qat'i nazar, hamma uchun teng va barobar hamda jamoaviylikka qaratilgan tizimli g'oya zahirida yotgan ijtimoiy maqsadlarda xizmat qilishga yo'naltirilganligi biz uchun jozibadordir. Ko'proq ijtimoiy sarmahsullikka bo'lgan intilish me'morlarni o'z inshootlariga Toshkent aholisi uchun ahamiyatli bo'lgan qo'shimcha xususiyat va vazifalarni in'om etishga ilhomlantiradi. Masalan, metro transport infratuzilmasi obyekti bo'lishidan tinmay muzey yoki san'at asariga xos sifatlar bilan boyitildi: mehmonxona (Yoshlar uyi) madaniy istirohat maskaniga aylantirilib, poytaxtning eng mashhur teatri joylashtiriladigan qarorgoh bo'ladi, ilmiy-tadqiqot muassasalari falsafiy yoki ilmiy-fantastik film uchun bezak (Quyosh instituti) sifatida yoxud olimlar va fuqarolarni birlashtiruvchi ko'rgazma va bahs-munozara maydonchasi (San'atshunoslik instituti) sifatida puxta o'ylab yaratiladi.



"Panorama" kinoteatri (Kino saroyi) panoramali va keng ekranli filmlarni tomosha qilishga moljallangan Markaziy Osiyodagi ilk immersiv zalga aylandi. Estetika va me'morchilik-rejalashtirish yechimlar, shubhasiz, uni Toshkent modernizmining bosh durdonasi bo'lishiga munosib qiladi. 2300 o'rindiqli tomosha zali bilan bir qatorda kinoteatrning mahobatli shaffof foyesi ham yuqori darajadagi uyg'unlashtiruvchi me'moriy ishoradir. Erta tongdan to oqshomgacha odamlar bilan liq to'la uzoqqa cho'zilgan xiyobon va shahar shohko'chasi o'rtasidagi mazkur hudud gavjum shahar maydonining modernizmga xos tengi hisoblangan.

4-bo'lim Badiiy orttirmalar


"Quyosh" geliomajmuasi Tyan-Shan tog' etaklarida, Toshkentdan 45 km uzoqlikda joylashgan. 22 qavat balandlikdagi botiq sathda joylashgan 10 700 oynadan iborat ulkan qalqon quyosh nuri va teskari manzarani aks ettiradi. 1981–1987-yillar oralig'ida qurilgan geliomajmuasi quyosh energiyasidan juda yuqori haroratlarda (3000°C gacha) materialshunoslik tajribalarini o'tkazish foydalanadigan dunyoda ikki inshootdan biridir.

Sovuq urush uchun oddiy hol bo'lgan vaziyatda majmua 1968-yilda Fransiyaning Pireneyisidagi Odeyoda aynan shunday inshoot qurilganidan keyin loyihalashtiriladi. Ikkala majmua o'xshash tarzda faoliyat ko'rsatadi, ammo ularning konsepsiyalari tubdan farq qiladi. Agar fransuz majmuasi sof funksional bo'lsa, Toshkent yaqinidagi quyosh majmuasi ilm-fan tantanasi, qo'rg'oni vazifasini bajaradi. Uning relashtirilishi va tabiat qo'ynidagi yerdagi san'at sifatidagi ta'sirchan joylashuvi futuristik tasavvurlar va fazoviy orzulardan ilhomlangan litvalik rassom Irena Lipenening ko'plab san'at asarlari va shisha haykallari bilan to'ldiriladi.





Ilkhom Theatre, White White Black Story



Toshkentdagi Yoshlar uyi – bu mustaqil “Ilhom” teatri qo‘nim topgan me‘morchilik, modernizm madaniyatini qanday qilib keltirib chiqargani hamda qo‘shimcha madaniy unsur sifatida me‘morchilikning o‘zini rivojlantirish va vaqt o‘tishi bilan o‘zining yashirin moslashuvchanligini ochib berishga majbur qilgani haqidagi qo‘sh hikoyadir.




Avenue of Cosmonauts Metro Station, Competition drawings

Avenue of Cosmonauts Metro Station, 1984
Architects: Sutyagin S., Sokolov S.

Tashkent's metro, operating since 1977, was the first in Central Asia. At the urban scale, it represented a very important step in the modernization of the city and was seen as more than a transportation system. It bore not only strategic defensive but also ideological functions, as it had to testify to the country's history and identity by means of the architecture of its stations. A team of local architects, supervised by S. Sutyagin, designed the Avenue of Cosmonauts station, which is rather original in terms of its spatial quality, fine finishes and numerous works of monumental art inspired by the heroic conquest of space.



Avenue of Cosmonauts Metro Station, artistic surplus diagram



1977-yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan Toshkent metropoliteni Markaziy Osiyoda birinchisi edi. Shahar mohiyatidan kelib chiqib u shahar muhitini zamonaviylashtirishda muhim qadam bo'lib, unga nisbatan shunchaki transport tizimidan ko'ra ko'proq narsa sifatida qaraldi. Metro nafaqat strategik mudofaa, balki mafkuraviy vazifalarni bajarar edi, chunki u o'z bekatlarining me'morchiligi orqali mamlakat tarixi va o'ziga xosligidan dalolat berishi darkor edi. Sergo Sutyagin boshchiligidagi mahalliy me'morlar jamoasi "Kosmonavtlar" bekatini loyihalashtirib, u o'zining badiiy yechimi bo'yicha g'oyatda betakror bo'lib, sobiq ittifoqning kosmosni zabt erishda erishgan lol qoldiruvchi muvaffaqiyatlaridan ilhomlangan mahobatli san'at asarlarini o'zida mujassam etgan edi.

Armin Linke
Toshkent metropoliteni, "Kosmonavtlar prospekti" bekat, keyinchalik "Kosmonavtlar"
tarzida qisqartirilgan
Toshkent O'zbekiston 2021



Armin Linke
"Turkiston" saroyi, Toshkent O'zbekiston 2021



7-bo'lim O'tmish


Hozirgi zamon O'zbekiston hududida ming yillar davomida ko'plab madaniyat va tamaddunlar turli tarzda bir-birlari bilan o'zaro bahamjihat hamkorlikda rivojlanib kelgan. Shunga qaramay erta sho'rolar davrida mahalliy an'analar atamasiga ta'rif ushbu tarixning alohida tanlanlab olingan parchalari: Somoniylar va Temuriylar sulolalari, islom, folklor va h.k. davrlariga diqqat-e'tiborni qaratgan.

II Jahon urushidan keyin tadqiqot va arxeologik qazishmalar sharofati bilan an'anaviylikni idrok etish o'lchamlari asta-sekin kengayib boradi. Bugungi kunda modernizm me'morchiligining mahalliy ildizlarini tadqiq qilayotganda an'ananiy zamonaviy tushunchasini u yo boshqa muayyan binolarni loyihalashtirishda an'anaviy deb hisoblangan narsalar bilan doimiy ravishda nisbat berib bog'lash shart. Bu me'morlarning dastlabki tarixiy murojaatlarini bugungi kunda birinchi ilgari surayotgan munaqqid va uyushmalarning keyingi talqinlaridan yaxshiroq farqlash imkonini beradi.

8-bo'lim Sharqonalilik


1960-yillarning boshlarida sovet Sharqi timsoli baynalmilal uslub tilida tuzilib, yangi inson uchun yangi jamiyat qurish g'oyalari bilan ilhomlangan edi. O'n yil o'tgach, futuristik tasavvur "Sharq" va "sharqonalik" bilan tenglashtirilgan tarixiy ildizlarga murojaat qilishdan iborat bir-biriga zid yondashuv bilan chambarchas bog'lana boshlaydi. Modernizmga oid bahs-munozaralar ijtimoiy va texnologik peshqadam yangiliklarga bo'lgan ishonchni o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, "sharqonalik"ni topish ilinji kashf etilayotgan an'ananiy zalvarli mohiyati, joyning ruhi va metafizikasiga murojaat etadi.

Shunday qilib, 1960–1980-yillarda O'zbekistondagi me'morchilik ikki bahs-munozara: modernizm va sharqonalilik chorrahasi orasida rivojlanadi. Ularning munosabatlari va o'zaro ta'sir shakllari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ushbu ikki tavsif talqinlarining uyg'unligi, ularning o'zaro aloqasi va murosasizlikdan qochish o'sha davrda Toshkentdagi deyarli har bir noyob binosiga ta'sir ko'rsatadi. Moskvalik loyihachilar O'zbekiston uchun "milliy uslub"ni topishda mamnunniyat bilan jalb etilib, toshkentlik me'morlarning 1960-yillarning birinchi yarmida sharqona uslublashtirishni rad etishlariga qaramasdan 1970–80-yillarda respublika hukumati va Toshkent me'morchilik jamoatchiligini qanoatlantirgan rasmiyatchilik zabonini taklif etishga muvaffaq bo'ladilar.




The territory occupied by contemporary Uzbekistan has a rich history, with moments of coexistence, friction and succession of cultures dating back to ancient civilisations. Yet, the local 'tradition', as defined during the early Soviet period, is extracted from a selection of later fragments of history: Timurid/Ramavid, Islamic, folkloric, etc.

After World War II, through research and archaeological excavations, the definition gradually expanded. Today, when working with architectural modernity and its local specificity, we must constantly relate the contemporary understanding of tradition to the one that was prominent when the buildings under consideration were designed. This way, we can better distinguish the architect's initial historical references, subsequent reinterpretations and, perhaps, artistic insights.




Tashkent Modernism. Index

Tashkent Modernism. Index



Tashkent Modernism. Index



9-bo'lim 1974

Rossiya imperiyasi davridagi “osiyo” va “yevropacha” shahar mahallalarining qat’iy taqsimotidan farqli o’laroq, 1920-yillarning oxiridagi Toshkentni ma’muriy birlashtirishdan so’ng barcha sovet bosh rejaları shaharning “eski” va “yangi” o’zaklarini qo’shish g’oyasiga quriladi.

Poytaxt markazining 1964-yilda ishlab chiqilgan bosh rejasi mualliflari bu vazifani ikki markazni birlashtirish mumkin bo’lgan xiyobonli sayrbop keng maydon yordamida amalga oshirishni taklif qiladilar. Ammo ikkala qismga nisbatan munosabat yakdil bo’lmaydi. Garchand bosh rejada “eski” va “yangi” shahardagi XIX va XX asr boshlariga mansub mavzela birlashtirish nazarda tutilgan bo’lsa-da (1966-yilgi zilzila “yangi” Toshkentning markaziy qismlarini buzishni tezlashtiradi), shaharning sobiq “yevropa” ko’chalarining tuzilishi muayyan darajada saqlanib qoladi. “Eski shahar mahallalari”ga kelsak, ularning tuzilishi va manzarasi keskin o’zgaradi. Jumladan, 1974-yilda Toshkent shahri markazini batafsil rejalashtirish loyihasida mahallalarning o’tgan yuz yilliklardan meros bo’lib qolgan tabiiy ko’cha tizimini yevropacha uslubdagi bir maromdagi istirohat bog’i bilan almashtirish ko’zda tutiladi. Shunday qilib, o’sha davr muhokamalarida tez-tez e’lon qilinadigan “Sharq va G’arb uyg’unligi” amalda shaharning bir qismini boshqa bir qismi tomonidan yutib yuborilishini nazarda tutgan.


10-bo'lim Toza sahifa

Toshkentning tarixiy “Chorsu” bozori yonidagi yangi bozor Toshkent markazining batafsil rejalashtirish loyihasida ilk bor 1974-yilgi paydo bo’ladi, ushbu g’oyaning tatbiq etilishi esa 1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlariga to’g’ri keladi.


Ko’hna Toshkentning yuragini ifodali ravishda ramziy timsol etuvchi yangi 86 metrli gumbaz evaziga qadimiy “Chorsu” mahallasini uning tarixiy turar-joy zaminidan buzib tashlanish badali guldor naqshlar va feruza tusli sopoldan keng foydalanilgan xayoliy o’tmishga murojaat qilish bilan o’rni qoplanadi.

Tashqi ko’rinishidan bozorning bosh gumbazi va unga qarashli binolar manzarali Sharq shaharsozligining ibratli namunasi bo’lib, ammo asosiy unsur muallaq qolgan mahobatli makondir. Markazlashgan yorug’lik deyarli sirli ravishda harakatdagi quyosh nuqtalarini ish joylarini oqilona tashkil etishdan ko’ra his-hayajonlarini ifodalash istagidagi jamuljam bo’lgan gavjum peshtaxtalarga yo’naltiradi.

1974



Tabula Rasa



1974

Tabula Rasa

1974 Existing situation





1974 Masterplan



In opposition to the segregation of the 'traditional' and 'European' parts of Tashkent in the earlier period, all Soviet masterplans were built on the idea of connecting the cores of the 'old' and 'new' city (after the administrative unification of the city at the end of 1930s).

The 1964 master plan of the centre of the capital suggested doing this by creating a green expanse that would unify the two centres. However, the fragment of the two parts was biased. Despite the fact that it accompanied the demolition of the central part of 'new' Tashkent, the structure of the streets of the 'new' city remained the same. With the demolition of the ancient city, as enforced by the 1936 decision plan for the city centre, the urban morphology and landscape changed dramatically: the organic street system of medieval times, inherited from the Middle Ages, was replaced by a regular European-style park. Thus, the 'synthesis of East and West' often proclaimed in the discourses of the era became the divorcing of one part of the city by the other.



The construction of the new market, next to the site of Tashkent's historic bazaar, first appeared in a version of the 1974 depicted general plan and was implemented in the late 1980s.

The demolition of the old Chirchik mahalla with its authentic residential fabric, to make way for the new 88 metre dome, emphatically marking the very heart of old Tashkent, is compensated by the appeal to an imaginary past with antique ornaments and floral motives.

While the exterior of the main market dome and its secondary structures is an exercise in picturesque formalism, the interior reveals the bare industrial structure housing over the industrial stalls. As a capitalist marketing device, the large central arched points the moving market onto the assembled vendors, whose concrete organization suggests performative rather than economic thinking.






11-bo'lim Ikki tomonlama o'yin

Bogdan Xmelnitkiy ko'chasidagi uy ikki tomonlama o'yinning yaqqol namunasidir. 1966-yilgi zilziladan keyin Toshkentga ko'chib kelgan moskvalik me'mor Andrey Kosinskiy poytaxtga aeroport tomonidan tantanali kirib kelishni o'zgacha e'tibor berilgan sharqona ruhda: peshtoqlar, tomchi "stalaktitlar" ko'rinishidagi dahlizlar, islom va janubga xos me'morchilikni yodga soluvchi rang-barang qadama naqshlar bilan bezatilgan turli tusdagi uylar tarzida loyihalashtiradi. Biroq me'morning yashirin ilhomi, uning o'zining e'tiroficha, tevarak-atrofdagi maydonlar va baland urg'ulardan iborat tizimga ega Peterburgdagi Nevskiy prospekti bo'lgan. Shunday qilib, sotsializmning "Sharq peshtaxtasi" timsoli sifatida Rossiya imperiyasining sobiq poytaxtidan o'zlashtirilgan XIX asr rejalashtirish modeli xizmat qiladi. Shu bilan birga, Kosinskiy Markaziy Osiyo xalq me'morchiligini o'rganib, Bogdan Xmelnitkiy ko'chasidagi uyni loyihalashda toshkentlik me'morlarga ma'lum bo'lgan beton binolarning old tomonini tabiiy ravishda ko'tarilayotgan havo oqimi bilan sovutish usuliga murojaat qiladi. Bu modernistlarning asrlar davomida mintaqaning jazirama iqlim sharoitida sinovdan o'tgan mahalliy an'anaviy "nou-hau"ga nisbatan e'tiborining oddiy namunasi edi.

12-bo'lim Vertikal mahalla



"Jemchug" (Marvarid) turar-joy binosining konsepsiyasi ikki intilishdan vujudga keladi. Birinchisi sovetlarning sanoat uy-joy qurilishi uchun eng tejamkor yechimlarni izlab topishga yangi turtki berishdan iborat bo'lgan. Agar Xrushchev davrida asosiy e'tibor yig'ma qismlarning keng repertuarini ishlab chiqargan uy qurilish kombinatlariga qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichda me'morlarning fikrlariga ko'ra, monolit uylarni bir xillashtirilgan qolip qismlardan foydalangan holda bevosita qurish bo'lib, ular sinovlardan o'tkazilgach, ayniqsa mamlakatning seysmik hududlaridagi qurilish jarayonlarini arzon va tez amalga oshirish lozim bo'ladi. Ikkinchi intilish Markaziy Osiyoning tarixiy shaharlaridagi ko'p bolali oilalar atrofida jamoaviy turmush tarzini kechiruvchi muayyan an'anaviy jamoalar – mahallalar bilan bog'liq bir qavatli uylarning tik zamonaviy o'xshashini yaratishdan iborat bo'lgan. Me'mor Ofeliya Aydinova tomonidan taklif etilgan innovatsion yechim har biri uch qavatli "osmonda" muallaq qolgan beshta hovlini yaratishdan iborat bo'lib, uning natijasida 16 qavatli bino qad rostlaydi. Bu hovllar an'anaviy jamoasining sotsialistik ekvivalenti hisoblangan "xususiy jamoat mulki" sifatida loyihalashtiriladi.

Ammo texnologik zaxiralarning taqchilligi qurilishni nihoyatda qimmatga tushurib, binoning ochilishi esa "qayta qurish" davriga to'g'ri kelib, bu esa Markaziy Osiyoda sotsialistik tajriba-sinovlarning intihosiga yetaklaydi. Biroq Chandigarh shahri va Shimoliy Afrikadagi fransuz modernist me'morlarning turar-joylari singari Aydinovaning durdona asari bu uyda istiqomat qiluvchilar uchun ijod makoniga aylanadi. Ko'p yillar davomida ular jamoaviy maydon qismlaridan o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari uchun moslashtirib, asl dizaynning betaraf qiyofasini yangi pardo bilan jonlantiradilar. Kapitalizm sharoitida binoni saqlab va yashab qolishi uchun ular paradoks ravishda sa'y-harakatlarni birlashtirishga va bir-birlari bilan hamkorlik qilishni boshlashga majbur bo'lishadi. Ularning shaxsiy va jamoaviy ijodiy harakatlari modernizm utopiyasini dastlabki mavhum shakldan ko'ra rang-barangroq va yorqinroq bo'lgan mushtarak yashash makoniga aylantiradi.



The housing on Bogdan Xmelnitkiy Street is a symptomatic example of the double game. Moscow architect Andrey Kosinskiy, who moved to Tashkent after the 1966 earthquake, designed a solemn entrance to the Uzbek capital from the airport in an emphatically oriental spirit: multi-coloured houses decorated with arches typical of Islamic architecture, stalactite balconies and colourful mosaics. Interestingly, the latest inspiration of the architect was, in his words, Nevsky Prospekt in St. Petersburg, with its system of adjacent squares and high-rise accents. So, a 19th-century planning model, borrowed from the former capital of imperial Russia, functioned as the prototype for the socialist 'vitrine of the east'. At the same time, Kosinskiy studied the vernacular architecture of Central Asia, proposing to use the facade of overheated concrete buildings with a naturally ascending air flow. This was a typical example of modernists' attention to local traditional know-how, adapted through the centuries to the hot climate of the region.


Tashkent Modernism. Index



The concept of the Zhemchug residential building resulted from two aspirations. The first was to bring a new impetus to the Soviet quest for the most economical solution to industrial housing construction. If under Khrushchev the main focus was on GDR housing construction factories that produced a vast range of prefabricated elements, the next stage, according to the architects, was the direct construction of monolithic houses on-site using standardized formwork elements, which, after being tested, should have made the building process cheaper and faster, particularly in seismic zones of this large country. The second aspiration was to create a vertical modern analogue to the single-storey housing of historic Central Asian cities, related to specific

traditional communities – mahalla – practising a collective way of life around extended family units. The innovative solution proposed by architect Ofeliya Aydinova, was to create five courtyards, suspended 'in the sky', each three floors high, resulting in a 16-storey building. These courtyards were conceived as a 'private collective property', which was considered the socialist equivalent of traditional communalism.

city of Chandigarh and French modernist projects in North Africa. Aydinova's masterpiece became a field of local creativity. Through the years, the inhabitants appropriated parts of collective spaces for their individual needs, and personalized the neutral appearance of the original design with new finishes. They were paradoxically stimulated to unite forces to preserve the sustainability and survival of the building. Their private and collective creative efforts transformed the modern utopia into a space of co-existence, which became more various and vivid than the initial abstract form.





13-sho'ba O'zbekiston davlat san'at muzeyi

1967–1974-yillar oralig'ida barpo etilgan Davlat san'at muzeyi faoliyatida yangi ashyolarni ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi birlamchi o'rinni egallagan Toshkent hududiy tajriba-sinov loyihalashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (ToshZNIIEP)da rejalashtiriladi. Ulardan biri, bosh Moskva shisha institutida ishlab chiqilib, ToshZNIIEPda Davlat san'at muzeyi uchun maxsus sinovdan o'tkazilgan stevit, yorug'likni tarqatuvchi noto'qima shisha tolali matodan iborat germetik konstruksiyali shisha bo'lgan. 2,2x2,2 m o'lchamdagi panellar ko'rinishidagi ushbu material muzey binosining old tomoniga qadab o'rnatilib, nafaqat galereya ichida ajoyib va barobar yorug'likni, balki bino tashqarisida kompozitsiyasining geometrik asosini ham yaratadi, bu esa inshootning o'ziga eng xos va jo'shqin xususiyatiga aylanadi. Darhaqiqat, Davlat san'at muzeyi qurilgan paytda u Toshkentning eng mavhum binosi bo'ladi. Kvadratning geometrik shakliga asoslangan aniq nisbatlari mintaqaning tarixiy madaniyati va global modernizm tilini uyg'unlashtirib, ushbu me'morchilik bugungi kunda ham o'ta zamonaviy tus beradi.



Tashkent Modernism. Index

14-sho'ba Toshkent uchun strategiya


Bugungi kunda Toshkentning modernizm me'morchiligi shaharning tez sur'atlar bilan o'sishi tufayli qaytarib bo'lmay talafot ko'rish xavfi ostida qolmoqda. Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda loyiha jamoasi tomonidan tayyorlangan muhofaza qilish strategiyasi 2013-yilgi Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS)ning Bur xartiyasiga asoslangan Asrab-avaylashni boshqarishning kompleks rejasi ishlanmalaridan iboratdir. Reja XX asr oxiriga oid Toshkent me'morchiligining madaniy ahamiyatiga baho berish qaratilgan. Shuningdek, u mazkur merosni qanday qilib himoya qilish bo'yicha aniq tavsiyalar beradiki, toki har qanday yangi foydalanish, o'zgartirish, qayta qurish yoki boshqarishda ham uning ahamiyati saqlab qolinsin.

Mazkur yondashuv turli tarixiy hikoya va ko'plab talqinlardan iborat moslashuvchan strategiya, nozir yakka holatdagi yechimlarni nazarda tutadi.

Uzoq muddat va merosni asrab-avaylash amaliyotidagi izchillikka intilgan holda Toshkent o'zining modernizm me'morchiligi qadr-qiymatini oshirib boradi oshiradi. Bunda ularning nibatan yaqinda paydo bo'lganligiga qaramay muhofaza qiluvchi madaniy boylar ro'yxatiga kiritadi.

Xarita har bir modernizm binosi uchun taklif etilayotgan harakatlarni namoyish etib, obyektlarning o'zgarishi va ularning madaniy ahamiyatini asrab-avaylanishini turli darajada birlashtiradi.



Tashkent Modernism. Index




Tashkent Modernism. Index




Facade Demolition



Facade Construction



Facade preservation strategy, axonometric scheme



Current situation/Proposal, axonometric view

Facade construction, 1974



State Museum of Arts
Project visualization, view from the park

Davlat san'at muzeyi
Loyiha vizualizatsiyasi, istirohat bog'i tomonidan ko'rinish

O'sha davrdagi tejamkorlik va ishlab chiqarishni jadallashtirishga bo'lgan istak natijasida paydo bo'lgan ko'plab eksperimental yechimlar kabi stevit devorlarning alyuminiy qoplamasi singari pishiq bolib chiqmaydi. Buning natijasida u 2000-yillarning boshida binoning old tomoni demontaj qilinadi. Natijada bino mumtoz fasadga taqli qiluvchi va me'moriy yechimning yaxlitligiga sezilarli darajada putur yetkazgan alyukobond va shisha bilan qoplanadi. Binoni ko'zdan kechirish shuni ko'rsatdiki, old tomondagi dastlabki panjara tuzilmasiga hali ham shikast yekazilmagan va me'morlarning asl loyihasini qayta tiklash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu masala va boshqa dolzarbligi kamroq muammolarni hal qilish uchun tavsiya etilayotgan muhofaza qilish strategiyasi binoning turli tarixiy qatlamlarini tanqidiy tahlil qilish bo'yicha qator chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Me'moriy nuqtai nazardan loyiha bino old tomonining qo'shimcha qatlamini olib tashlash va boy berilgan sifatning zamonaviy talqinini ta'minlaydigan yangi materialni joylashtirishni nazarda tutadi. Jamoamiz stevitning zamonaviy analogini, saqlanib qolgan fasad tuzilishiga qo'yish uchun mahkam, issiqlikka chidamli, yorug'likni barobar tarqatuvchi, bugungi kun talablariga javob beruvchi, mahalliy va xalqaro mutaxassislar hamda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan yangi materialni topishga intilmoqda. Bino old tomoni quyosh ta'siriga qarab qo'shimcha qadr-qiymati, masalan, quvvatni uzatish yoki jamlash va shaffoflikni ta'minlash imkoniyatlari masalasida o'rganiladi.




QORA rang bilan huquqiy himoya va puxta muhofaza choralari taqozo etuvchi katta ahamiyatga ega elementlar ko'rsatilgan.

OQ rang bilan har bir aniq muayyan holat tahlil qilingandan keyin o'zgartirish mumkin bo'lgan elementlar ko'rsatilgan.


TO'Q SARIQ rang bilan yashirin modernizm xususiyatlari belgilangan, ular avvalgi aralashuvlar natijasida o'zgartirilgan yoki qoplangan, lekin kiritilgan o'zgarishlar qaytarib bo'lmas hisoblanadi. Shundan kelib chiqib ushbu xususiyatlar qayta tiklanishi mumkin.

San'at restavratsiyasi markaziga aylantirilgan Respublika turizm uyini asrab-avaylashi va dasturiy strategiyasi o'zaro bog'liqdir. Binoning o'tmishdagi jamoat joylari – kinoteatr, foye, hovli saqlanib qolgan, boshqa qismlarida esa tadqiqot laboratoriyalarini joylashtirish maqsadida yanada salmoqli o'zgarishlarda duch kelmoqda.




Respublika turizm uyi

Loyihaning asosiy maqsadi binoga qachonlardir xos bo'lgan me'moriy va dasturiy yaxlitlikni qayta tiklashdan iborat.




Yoshlar uyi

Sirkni saqlash bo'yicha strategiyaning asosiy maqsadi – foye maydonini kengaytirish uchun yaqindagi aralashuvlardan so'ng yo'qotilgan ichki va tashqi makon o'rtasidagi nisbat muvozanatini tiklash. An'anaviy panjarani eslatuvchi to'siqlar bilan bezatilgan sovutish tizimi sifatida ishlab chiqilgan fasad asl holatiga qaytarilishi va dastlab mo'ljallanganidek ishlashi uchun panjaralardan ajratilishi kerak.



O'zbekiston davlat sirk

Asosiy vazifa mavjud binoni, fasadni qisman qayta ta'mirlagan holda ayniqsa tepa hajmni saqlash. Mehmonxona etagidagi asl jamoat hovlisini eslatuvchi yangi me'morchilikni o'z ichiga olgan yangi pastki qavat devorlari loyihaning yana bir muhim tarkibiy qismidir.




"O'zbekiston" mehmonxonasi

Strategiyaning muhim jihati bosh gumbazni nafaqat bozor atrofidagi barcha chakana savdo tizimlarini bog'laydigan katta yer osti poydevori, balki shahar kvartali, shu jumladan, qo'shni mahalla, madrasa va masjidlardan iborat ulkanroq shahar yaxlitligining bir qismi sifatida ko'rishdan iborat. Bu boy shahar ekotizimi bo'lib, strategik qayta anglash va turli darajadagi asrab-avaylash va o'zgartirishlarni talab qiladi.



Chorsu bozori

Majmuaning badiiy va landshaft tarkibiy qismlarini saqlab qolishga ko'proq e'tibor qaratib, qolgan hammasini olimlar ixtiyoriga qoldirish nazarda tutilmoqda. Taklif etilayotgan yagona o'zgarish ilmiy ishlarga xalaqit bermaslik maqsadida majmua perimetri bo'ylab harakatlanadigan olimlar va sayyohlar oqimini ajratishga taalluqli bo'ladi.




"Quyosh" geliomajmuasi

Asosiy vazifa – mavjud inshootni ayniqsa uning yuqori qismini yo'qolgan shaffoflikni tiklash uchun bino old tomonini qisman tiklash orqali saqlab qolishdir. Birinchi qavat yanada ochiq va shahar bilan bog'langan bo'lishi uchun qayta loyihalashtirilgan.



O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

Ushbu bino Toshkentning 1960-yillardagi eng betakror va ahamiyatga molik modernizm ansambli hisoblanadi. Unga nisbatan yodgorlikdek munosabatda bo'lish lozim. Shuning qilib taklif etilayotgan asrab-avaylash rejasi eng konservativ bo'lib, imkon qadar binoning asl holatini tiklash, xususan, yaqinda yangi kinozallar qurilishi ortidan xavf ostida qolgan foyening shaffof fasadini saqlab qolishga qaratilgan.



"Panorama" kinoteatri



Nikolay Karaxan
Yangi O'zbekiston, 1938, Mato, moybo'yoq

15-sho'ba O'zgacha shakllar

Shu paytgacha biz Toshkentdagi modernizmning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy, ijtimoiy va madaniy hikoya va talqinlar orqali tavsiflashga harakat qildik. Bu yerda biz unga sof vizualligi nuqtai nazaridan qaraymiz. Ular asl manbaga u yoki bu darajada murojaat qiluvchi madaniy yo'lakda zamonaviy aralashuvlar uchun lug'atni tashkil qilish mumkin bo'lgan yakka ixotalangan, mustaqil me'morchilik parchalaridan xatlovni yaratish uchun mayda unsurlardan saboq chiqaramiz.

16-sho'ba Madaniy yo'lak

Madaniy (modernizm) yo'lagi bu Toshkent go'zalligini kashf qilish va uning ravnaqiga hissa qo'shish vositasidir. U poytaxtning modernizm merosini taqdim etib, shuningdek, boshqa davrlarning o'ziga xos qismlarini o'zida mujassam qiladi.

Madaniy yo'lak shaharning tarixiy tuzilishini ochib beradi va Toshkentning kelgusi rivojlanish strategiyasini belgilaydi. Modernizm binolarini mustaqil mavjud yodgorlik sifatida taqdim etish o'rniga, Madaniy yo'lak ularning tevarak-atrof bilan bog'liq munosabati va kengaytirilgan jamoaviy makon tizimini yaratish salohiyatini kashf etadi.

Mavjud yashil hudud va piyodalar makoni tizimi XX asr merosi va Toshkentning modernizm rejasi sifatida shakllanib, u shahar markazini xuddi katta bog' kabi belgilab beradi. Madaniy yo'lak bu g'oyani mustahkamlaydi.

Madaniy yo'lak bu yerda chop etiladigan xarita shaklida taqdim etilgan bo'lib, unda har bir marshrut o'ziga xos xususiyat va rangga ega. Diqqatga sazovor joylardan tashqari marshrut shahar tuzilishini tiklash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlashni ham nazarda tutadi. Vaqt o'tishi bilan u o'zgarishi va yanada takomillashishi mumkin.

